



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- yil yanvar-fevral oylari



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral oylari)



**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi -
50,3%**



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi –
1 148,8
ming so'm**




**Xizmatlar
sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi - 65,1%**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
(1- mart holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(yanvar-fevral)




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- mart holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-fevral)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-fevral oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-fevral oylari)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-fevral oylari)

Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati ¹⁾	1 040,0	100,0	111,8
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	453,6	43,6	114,2
Shirin	14,1	1,4	114,3
Yangiyer	75,4	7,3	119,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	92,8	8,9	105,4
Guliston	45,9	4,4	110,1
Mirzaobod	53,3	5,1	111,6
Oqoltin	35,0	3,4	115,1
Sardoba	41,4	4,0	115,2
Sayxunobod	44,9	4,3	105,1
Sirdaryo	133,5	12,8	107,6
Xovos	50,1	4,8	105,2


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral oylari)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-fevral oylari)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-fevral oylari)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxona subyektlarining ulushi **50,3** foizni, shu jumladan, **20,2** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-fevral oylari)



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari


(2024- yil yanvar-fevral oylari)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	1 040,0	100,0	111,8
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	62,5	6,0	113,2
Moliyaviy xizmatlar	356,1	34,2	112,1
Transport xizmatlari	152,4	14,7	116,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	141,8	13,6	112,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	29,9	2,9	109,8
Savdo xizmatlari	211,6	20,3	109,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	28,2	2,7	118,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	31,1	3,0	112,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	25,7	2,5	110,1
Ijara xizmatlari	17,9	1,7	112,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	26,0	2,5	109,3
Shaxsiy xizmatlar	22,7	2,2	111,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8,9	0,9	106,4
Boshqa xizmatlar	67,0	6,4	107,9

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral oylari)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-fevral oylari, mlrd. so'mda)

Guliston shahri	214,4
Sirdaryo tumani	29,4
Boyovut tumani	27,2
Sayxunobod tumani	14,6
Guliston tumani	13,6
Sardoba tumani	13,0
Xovos tumani	12,9
Yangiyer shahri	11,9
Oqoltin tumani	9,7
Mirzaobod tumani	6,5
Shirin shahri	2,9

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-fevral oylari)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-fevral oylarida 93,7** foizni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **60,2** foizni yoki **214,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,1 %**.

Guliston shahrida transport xizmatlari hajmi **37,6** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **114,8 %** ni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-fevral oylari)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-fevral oylari)





¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

⚙ O'sishi

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-fevral oylari)

2024- yil yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **141,8** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,6 %** ni tashkil etdi.



110,4% **Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari**
(2024- yil yanvar-fevral oylari)

112,2%

112,6%

113,3%

112,0%

114,7%

111,7%

126,5%

113,1%

113,2%

112,9%



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi
(2024- yil yanvar-fevral oylari)

35,6 %

Yo'lovchi tashish

64,4 %

Yuk tashish

Hajmi, mlrd. so'mda **O'sishi**

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


2024- yilning yanvar-fevral

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **69,8** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-fevral oylari)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-fevral oylari)



Guliston shahri	52,1	108,7%
Sirdaryo tumani	41,3	111,5%
Yangiyer shahri	21,4	109,2%
Mirzaobod tumani	20,4	111,6%
Xovos tumani	15,3	111,4%
Boyovut tumani	14,8	99,7%
Sayxunobod tumani	11,8	88,4%
Guliston tumani	11,1	110,9%
Oqoltin tumani	10,2	136,6%
Sardoba tumani	9,1	111,2%
Shirin shahri	4,1	111,2%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari-ning umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-fevral** oylarida ularning ulushi **94,5** foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-fevral oylari)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-fevral oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

◆ O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-fevral oylari)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-fevral** oylaridagi ulushi **56,1 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-fevral oylari)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral oylari)

2024- yilning yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **30,6** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar - fevral oylari)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-fevral oylari)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **84,1** foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-fevral oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2024- yilning yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **84,9** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar - fevral oylari)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar - fevral oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar – fevral oylari)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar – fevral oylari, mln. so'mda)




2020- yilning yanvar-fevraliga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 7,2 mlrd. so'mga oshib, 17,9 mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida 2024- yil yanvar-fevral oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi 39,9 % ni tashkil etdi.




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar – fevral oylari)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 27,5 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar – fevral oylari)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mln. so'mda

O'sishi

Shaxsiy xizmatlar dinamikasi (yanvar-fevral oylari)



Hududlar kesimida shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar –fevral oylari, mln. so'mda)



2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida shaxsiy xizmatlar hajmi **4,8** mlrd. so'mga oshib, **22,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida sataroshlik xizmatlari ulushi **79,9** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromatlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.